

Shamsiev O'ktam Baxriddinovich,
*Alfraganus universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri,
psixologiya fanlari doktori (DSc) professor
orcid.org/0009-0006-0097-1095*

АНАЛИЗ ФЕНОМЕНОЛОГИИ РЕБЁНКА

Аннотация. В статье говорится о том, что личность, вытекающая из концепции социального воображения, является важным элементом в системе социального воображения, определяющим представление ребенка о себе и своих качествах, прежде всего, о его роли и статусе в обществе, содержание которого является основой социальных отношений и социального поведения человека, идея о том, какие социальные факторы и группы играют здесь ведущую роль, важны с точки зрения науки, подтверждается научными доказательствами.

Ключевые слова и понятия: мать, младенец, ребенок, самосознание, понятие "Я", образ "Я", эмоциональная реакция, факторы, влияющие на ребенка.

BOLA FENOMENOLOGIYASI TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasidan kelib chiqadigan shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida bolaning o'zi va o'z fazilatlarini to'g'risidagi tasavvurlari, eng avvalo, jamiyatda tutajak o'rni va maqomini belgilovchi muhim mexanizm ekanligi, uning mazmuni shaxsning nafaqat o'ziga, balki o'zga shaxslarga bo'ladigan ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiy xulqining asosi hisoblanishi haqida so'z yuritiladi. Bunda qanday ijtimoiy omillar va guruhlarining yetakchi rol o'ynashi ilm-fan nuqtai nazaridan muhim ekanligi g'oyasi ilmiy dalillar asosida tasdiqlangan.

Tayan so'z va tushunchalar: ona, go'dak, bola, o'z-o'zini anglash, "Men" konsepsiyasi, "Men" obrazi, emotsional reaksiya, go'dakka ta'sir etuvchi omillar.

ANALYSIS OF THE PHENOMENOLOGY OF THE CHILD

Annotation. The article says that the personality arising from the concept of social imagination is an important element in the system of social imagination that determines the child's idea of himself and his qualities, first of all, about his role and status in society, the content of which is the basis of social relations and social behavior of a person, the idea of which social factors and groups play a leading role here is important from the point of view of science, is confirmed by scientific evidence.

Key words and concepts: mother, infant, child, self-awareness, the concept of "I", the image of "I", emotional reaction, factors affecting the child.

Kirish

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va

sub'ektiv omillarga, xususan, undagi o'zlikni anglash, o'ziga-o'zi beradigan baholar hamda munosabatlarning

xarakteriga bog'liqdir. Bu, avvalo, inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogenezning dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, ota-ona va farzandlar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlar ayniqsa onaning tabiati katta rol o'ynaydi. Oila ijtimoiy guruhlarining eng kichigi bo'lib, bolada o'zi va o'zgalar to'g'risida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarining dastlabki muhiti sifatida katta ijtimoiy ahamiyatga molik maskandir. Ko'plab psixologik tadqiqotlarda oila bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Lekin bolaning o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlari shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatlarning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlari ular tomonidan qay darajada anglanishining bevosita roli e'tibordan chetta qoladi. Mazkur muammo yuzasidan alohida me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham bejizga emas[1]. O'z navbatida mutaxassislar qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar va yo'l-yo'riqlarni tatbiq etishlariga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR TAHLIL

Mavzuning dolzarbligini aholiga psixologik maslahatlar berish, oilaviy psixoterapiya hamda onalik va otalik

psixologiyasini o'rganish bilan bog'lik sohalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj belgilab beradi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Bola dunyoga kelishi jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlar, ya'ni ota-ona munosabatlari, ayniqsa, onaning psixologik holati, oiladagi maqomini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bugungi kunning muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Bolaning ijtimoiy xulqi mazmuni, kognitiv rivojlanishi, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir qilishi nuqtai nazaridan ham ushbu masala tadqiqotchilar diqqatini jalb etmoqda.

Xorij psixologiya fanida tan-vujud bilan ona-bolaning yaxlitligi o'ziga xos hissiyot bo'lib, u ko'pincha fanda "xolding" (inglizcha "tutish", "ushlash" so'zidan olingan) (Vinnikott D.V.) tajribasidan kelib chiqadi. Bu – onalikning madaniy-tarixiy jihatlarini (Muxamedraximov R.J.), uning biologik, fiziologik, psixofiziologik jihatlaridir. Biologik jihatdan bolani tarbiyalash sharoitida fiziologik va stimul muhitni yaratish sifatida qaraladi (Isenina Ye.I., Fillipova G.G.). Onalikning psixologik jihatlarini qayg'urish, ustanovkalar, umid, onaning munosabati, onalik xulqining tiplari va usullari, shuningdek, onalikning ijtimoiy-psixologik va psixoterapevtik masalalarini o'z ichiga oladi. Madaniy-tarixiy yondashuv vakillari onalik xulqini bolaning

rivojlanish manbai, muloqot, bilish faoliyati, o'z-o'zini anglash sub'ekti sifatida o'rganishgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ona va uning funksiyalari tushunchasi (E.G'. G'oziev), ayolning ijtimoiy vazifalari va qo'llab-quvvatlashi, homiladorlik davrida bola obrazi va u bilan aloqa o'rnatish (O'.B. Shamsiev)[2] kabi muammolar turli kontekstlarda o'rganilgan. Xususan, V.M. Karimova ta'kidlaganidek, oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehri munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi.

Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, onalik turli tomondan va turli nazariy yondashuvlar doirasida o'rganilgan, biroq ajratilgan jihatlar asosida bir butunlikni tashkil etadigan onalik modeli yaratilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI/ Maqolaning ilmiy yangiligi ona fenomenining sifati va xususiyati belgilari go'dakning rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvi uchun xizmat qilishi ko'zda tutilgan onalik modeli yaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning o'zini baholashi, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa shaxslar baholashi bilan bog'liq holda shakllanish xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida oilaviy munosabatlarning markazida turuvchi ona fenomenining sifat va xususiyatlari tanlab olindi.

Tadqiqotda nazariy-uslubiy va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik manbaini tadqiqotda foydalanilgan longityud metodining amaliyotda qo'llash bo'yicha olingan natijalari tashkil etdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bola tug'ilishining dastlabki onlaridanoq ona va bola o'zaro hissan va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, uning o'zini anglashi ana shu hissiy iliqlikning natijasiga ko'proq bog'liqdir. Bola ulg'ayib, katta bo'lgan sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distansiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi, ya'ni bolada o'zi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga turtki bo'luvchi ijtimoiy omillar ko'lami ortib boraveradi.

Shunisi muhimki, bola uchun har qanday g'amxo'r va mehribon inson unga ona o'rnini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rliqi, ya'ni mehribon insonning – "ob'ektning" doimiyligi bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lgunga qadar bo'lgan davr ekstralingvistik va noverbal muloqot davri bo'lib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo'ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi hamda bora-bora muomalaga til

hamda tovushlar bilan bog'liq belgilar kirib kela boshlaydi. "Onaning barcha sa'yi-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi", deb yozadi V. Karimova. V. Karimovaning ta'kidlashicha, "oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini belgilaydi".

Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiy bo'lsa, bu E. Erikson ta'biri bilan aytganda, "mutloq ishonch"ga asos bo'ladi. Ya'ni haqiqiy, g'amxo'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his qilib, o'sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa – ko'krak suti, peshob qistaganda, to'sish

kabi ishlarni o'z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o'z vaqtida mehr ko'rsatishi ba'zan intuitiv tarzda kechsa, ba'zan ona o'zini bola bilan identifikatsiya qiladi, ya'ni o'zini bolaning o'rniga qo'yish orqali, uning talab-istaklarini sezganday bo'ladi, "vujudi bilan his etadi". Bunday his qilishlar odatda ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin odatda onaning kechinmalari va sezishlari to'g'ri chiqadi. Ammo ba'zan pediatr yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o'zining intuitiv qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglab qoladi. Biz oilani yetarli darajada erkin va mustaqil quyi tizimlar – barqaror o'zaro munosabatlar bilan bog'langan ota-ona, bola, ota-ona – bola, ayol, erkak va er-xotin tizimidan tarkib topgan to'laqonli yaxlit tizim sifatida baholaymiz (1-rasm).



1-rasm. Nuklear oila quyi tizimlari strukturasi

Psixologik nuqtai nazardan tan – vujud bilan ona va bolaning yaxlitligi o‘ziga xos hissiyot bo‘lib, u ko‘pincha “xolding” (inglizcha “tutish”, “ushlash” so‘zidan olingan) tajribasidan kelib chiqadi. Ya’ni ona o‘z bolasini qo‘lida ushlab, tani taniga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi o‘zgarishlarni tuyadi, his qiladi. Xorij olimi D.V. Vinnikottning fikricha, “xolding” tajribasi yaxshi bo‘lmagan onalarning shaxsiy muammolari ko‘p bo‘lib, ular bolani qo‘lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik ixtiyoriy psixik funksiyalar rivojida muayyan

muammolar bo‘lishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to‘plash, ixtiyoriy ravishda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash kabilar.


Gapirish, nutq faoliyati bilan bog‘liq psixik funksiyalar ko‘pincha *sinxronizatsiya* jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan ona odatda bolasining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi. Masalan, bolada ba’zan shunday holat bo‘ladiki, unda onaga bola bilan faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish noqulay bo‘ladi, bola

injiqlik qilib, hech narsaga ko'ngisi kelmay qoladi, buni sezgan ona bolaga gapiravermay, jimgina toza havoda sayr qildiraversa, ma'lum vaqt o'tgach, boladagi charchoq yoki boshqa sababli paydo bo'lgan holat o'tib ketadi; u yana jonlanib, onaga talpinadi, u bilan muloqotni davom ettiradi. Shuni inobatga olmagan holatlarda kommunikativ omadsizlik sodir bo'ladi (Vinnikott), buning oqibatlari psixologiyada yaxshi o'rganilgan.

Ota-onalar bola oldida birlamchi ijtimoiy ko'zgu vazifasini bajaradi hamda u bilan muloqotda muhabbat, hurmat va ishonch hislarini namoyon qilgan holda shu tariqa bolaga o'zi haqida ushbu hissiyotlarga loyiq bo'lgan sub'ekt haqidagi tasavvurni singdiradi. Ular tomonidan tashqi nazoratning qattiqligi bolada o'zini ichki nazorat qilishni rivojlantiradi, aniq asoslangan talablar, qat'iy belgilangan va mos keluvchi "Men" obrazi hamda "Men" konsepsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Va nihoyat, ota-onaning o'zini yuqori baholashi qaytuvchan aloqa va identifikatsiya mexanizmlari vositasida bolada ham shunchalik o'zini yuqori baholashni shakllantiradi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda xulosa qilib, avvalo, M.I. Lisina, I.S. Kon, A.A. Bodalev, V.V. Stolin, I.I. Chesnokova, G.B. Shoumarov, V.M. Karimova, O.B. Shamsiev kabi psixologlarning "Men" konsepsiyasi tuzilishi,

determinantlari va rivojlanish mexanizmlari haqida integrativ kompleksli tuzilma va o'zini anglash jarayoni mahsuli sifatida, shuningdek, oiladagi ichki inter va intraindivid munosabatlarning "Men" konsepsiyasi ontogeneznining maktabgacha bo'lgan yoshdagi davrida shaxsning "Men" konsepsiyasi shakllanishi bilan o'zaro aloqasi haqidagi tasavvurlarini tahlil qilish asosida biz ishlab chiqqan konseptual sxemani keltirib o'tamiz.

U maktabgacha bo'lgan katta yoshdagi bolalarda shaxsning o'zini anglash jarayonining kompleksli dinamik sxemasi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) rivojlanayotgan bola shaxsining ijtimoiy borliq hamda uning vakili sifatida ota-onalar bilan munosabatlari faolligi orqali aniqlanadi; b) birlamchi ijtimoiy guruh, ya'ni oilada boshqa ahamiyatli kishilar – ota va ona bilan shaxslararo muloqot faoliyati orqali bog'lanadi; v) natija sifatida strategik qadriyatlar yo'nalishi tizimiga bog'langan to'laqonli "Men" konsepsiyasiga ega bo'ladi; g) "Men" obrazi – o'zi haqidagi bilim va o'ziga munosabat hamda o'ziga xos soha, o'zini baholash, tasavvurlar yig'indisi shaklida tayanch tarkibiy qismga differensiyalanadi; d) bunda o'zini anglash jarayoni sifatida refleksiyalovchi "Men"ga, "Men" konsepsiyasi esa mahsulot sifatida refleksiyalovchi "Men"ga mansub hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Ota-ona mulokoti ta'sirida bola o'zini anglashining shakllanish mexanizmi

Keltirilgan sxema bizga maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning ota-ona bilan muloqoti faoliyati ta'siri ostida bolaning o'zini anglashi shakllanish mexanizmi hamda tayanch tarkibiy qismlardan tarkib topuvchi to'laqonli "Men" konsepsiyasining shakllanish jarayoni tizimini tahlil qilishga imkon beradi. Shuningdek, biz bolaning ota-onasi oilasida oiladagi ichki munosabatlar, ayniqsa, ona fenomeni nuqtai nazaridan bola shaxsining o'zini anglashi rivojlanishini o'rganish va tadqiqot gipotezasini belgilashda unga tayanishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ota-onalarning o'zini va farzandini baholashidagi ichki korrelyatsiya deyarli yaqqol ijobiy bog'lanishdagi koeffitsientlarda ifodalandi. Onaning o'zini-o'zi baholashi boshqa ko'rsatkichlar bilan otaning o'zini-o'zi baholashi ham onaning farzandiga bergan bahosi ham otaning farzandiga bergan bahosida ham ijobiy ichki korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi. Natijalarining bunday bo'lishida oilaviy muhit, ota-onaning farzandiga munosabatida bolalikning dastlabki davrlaridayoq o'ziga ishonchni, mustaqillikni, atrofdagilar bilan munosabatda faol va vazmin bo'lish, vaziyatlarni tahlil etishga o'rgatishi asosidagina erishiladi, deya olamiz. Bu

holat tarbiya muhiti psixologik qonuniyatlariga tayanib olib borilayotgan oilalarda ko'proq uchrashini e'tirof etamiz.

Demak, onaning hissiy-emotsional yaqinligi o'z bolasini afzal sifatlar egasi sifatida tasavvur qilishiga imkon beradi, ayni shunday munosabat bolalar munosabatida qanday aks etishi keyingi bosqichda o'rganildi.

Asosiy maqsadimiz maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning o'zini baholashi, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa shaxslar baholashi bilan bog'liq holda shakllanish xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi.

T.V. Dembo-S.Ya. Rubinshteyn shkalasida baholashning verbal omillari bilan juda yaqin darajada

bog'liq bo'lgan varianti yordamida ayni paytda o'zini baholashi, uning vaqt bo'yicha ekstrapolyatsiyasi va kutilayotgan ota-onalar bahosi diagnostika qilingan. O'zini baholash mezonlari sifatida quyidagilardan foydalanilgan: "yaxshi – yomon", "chiroyli – xunuk", "aqlli – aqlsiz", "uquvli – uquvsiz", "baxtli – baxtsiz". O'zini baholashda biz fikrning asoslanishiga, baholash mulohazalarining chuqurligi va turli-tumanligiga e'tibor qaratdik. O'rganilayotgan shaxslarni beshta shkala bo'yicha baholashdan olingan natijalarga qarab taqsimlash quyidagi jadvalda keltirilgan raqamlarda umumlashtirilib ifodalangan (1-jadval).

1-jadval
Bolaning o'zini-o'zi baholash natijalari

Munosabat pog'onasi		X	σ	t	
Bolaning o'z "Men"iga munosabati	Men-hozirda	4,87	0,41	2,12	
	Men-ilgari	4,60	0,73	1,75	
	Men- kelajakda	5,00	0,00	0,75	
Boshqalarning bola "Men"iga munosabati	Ona	4,81	0,39	1,75	
	Ota	4,85	0,35	0,71	

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning aksariyati (96,7%) o'zini ayni holatini qoniqarli hisoblaydi, bunda 90% bolalar o'zini "juda yaxshilar", 6,7% bolalar esa "yaxshilar" qatoriga kiritgan. Ko'rib turibmizki, bu yoshdagi bolalarda "juda katta Men" bo'lib, o'zini baholashi

adekvat emas, ya'ni biz olgan ma'lumotlar bu fenomenning mavjudligini ko'proq tasdiqlaydi.

Shuningdek, ma'lumotlar bolaning psixik rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvida "Men"iga munosabatini ruhiy rivojlanishining uch davri orqali tahlil berishlikni taqozo etmoqda. Bu esa bolaning "O'tmishdagi Men", "Hozirgi (real)

Men"i va "Kelajak Men"lari orasidagi o'zaro bog'liqlik va tafovutlarni kuzatishga yordam berdi. Natijalarning birlamchi tahlilida bolaning o'zini-o'zi baholashi bilan ota-onaning farzandiga bergan baholaridagi o'zaro mutanosibligining guvohi bo'lamiz. Ularning natijalarida ota-ona farzandining kechinmalari bilan o'zining tuyg'ularini uyg'unlashtira olgan. Shuningdek, ota-onaning farzandiga bergan bahosida ham keskin differentsiallashuv kuzatilmadi. Natijalarning bunday tus olganligi bir tomondan bola "Men"ining ikki davri, ya'ni "Hozirgi" va "O'tmish Men"i o'rtasida o'zaro moslikka ega deyishimizga asos bor. Chunki bola ushbu davrlarda ijtimoiy muhit ta'sirida bo'lgan, shaxsi shakllanishida har xil o'zining yoshiga xos emotsional va xulqiy jihatlariga xos ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarni boshdan kechirgan. Bu esa bolaning baxt va baxtsizlik, yaxshi va yomon, salomatlik yoki kasallikka aloqador munosabatlarini individual tarzda ifodalay olishidan hamda o'zini anglashiga imkon beruvchi taassurotlar manbaiga egaligidan dalolat beradi. Ammo bolaning "Kelajakdagi Men"i bilan bog'liq tasavvurlarida aniqlik yetishmayotganligini, maktabgacha tarbiya muhitida bolaning o'z kelajak tasavvurlari reallikdan ancha uzoq bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Hattoki, ota-onalar ham farzandlarining kelajagi bilan bog'liq holatlarni, ular to'g'risida yaqqol tasavvurni aks ettira olmasliklari kuzatildi. Korrelyatsiya tahlilidagi

natijalar ham bolaning o'zini-o'zi baholashida "Hozirgi Men" "Ilgarigi Men"i bilan mos kelganligi, bolaning o'zini-o'zi anglashida "Men"ning ikki ko'rinishi bog'lanishga ega ekanligidan dalolat beradi. Bolalarning bu natijalari boshqalar munosabatlari (ota-ona)da ham tasdiqlandi, ya'ni "Hozirgi Men" bilan ona munosabatida ($r=0,636$, $p<0.01$), ota munosabati bilan ($r=0,613$, $p<0.01$) hamda "O'tmish Men" bilan ona munosabatida ($r=0,445$, $p<0.05$), ota munosabati bilan ($r=0,474$, $p<0.05$) hosil qilingan korrelyatsiya bog'liqliklari bir-birini mantiqan taqozo etganligining guvohi bo'lamiz. O'z navbatida ona bilan otaning farzandga bildirgan munosabatlari ham o'zaro bog'liqlikka ega ekanligini tasdiqladi. Ammo bolaning o'zini-o'zi baholash natijalarining interkorrelyatsiyasida ham bolaning "Men"idagi o'tmish va hozirgi "Men"lari kelajak "Men"i bilan hech qanday bog'liq munosabatni aks ettira olmagan. Balki bu holatni maktabgacha yoshdagi bolalar o'z kelajagi to'g'risidagi tasavvurlari reallikdan ancha yiroq bo'lishi, yoki ota-onaning orzulari ham yuqori bo'lsa-da, ularni ro'yobga chiqishini ko'p hollarda bashorat qilish qiyin bo'lib qolganligi bilan izohlashga to'g'ri kelmoqda[3].

Qo'lga kiritgan empirik ma'lumotlarni sifat va son jihatidan tahlil qilish hamda bolaning o'zini-o'zi va ota-onasi tomonidan baholashi nisbatidan kelib chiqqan holda quyidagi baholash variantlarini ajratishga muvaffaq bo'ldik:

1) o'zini baholashi yuqori va otalilar tomonidan ham baholanishi yuqori bo'lgan bolalar o'z ota-onasining har qanday bahosini, hatto tanqidiy bahosini ham qabul qiladi, ularning fikriga qo'shiladi, bundaylarda o'ziga ishonch hissi mavjud va ota-onalar bilan yaqinlik hissi saqlab qolingan;

2) o'zini baholashi yuqori va otalilar tomonidan baholash o'rtacha bo'lgan bolalar – o'zini baholashda otalilar tomonidan o'zi haqida fikri baland emasligini ifodalar ekan, bola o'zi to'g'risida shakllanayotgan obrazini o'rtacha namoyish qiladi, bu esa otalilar bahosini passiv idrok qilishini keltirib chiqarib, natijada kelajakda o'ziga salbiy munosabatni shakllantiradi;

3) o'zini baholashi o'rtacha va otalilar tomonidan baholash o'rtacha bo'lgan bolalarda ham ko'proq noadekvat munosabatlar shakllanadi, hissiyotlari keyinchalik uncha aniq namoyon bo'lmaydi;

4) o'zini baholash o'rtacha va otalilar tomonidan baholanishi yuqori bo'lgan bolalar – otalilarning o'zi kutayotgan bahoga nisbatan balandroq baholashi, kelajakda bolaning ijobiy "Men" obrazini shakllantirish uchun qulay muhit yaratadi. Ya'ni aynan shunday holat ko'proq xolis munosabat hamda adekvat o'zini anglashga zamin bo'lishi mumkin.

Oila nafaqat ona, balki ota timsoli bilan ham uyg'un bo'lgani hamda bizning yondashuvimiz otalik va onalik maqomlarining bola o'zini anglashiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan

ekanligini inobatga olib, shu o'rinda qisqacha otalik psixologiyasi masalasiga ham e'tiborni qaratishimiz va bu boradagi olimlar fikrlariga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, otalik psixologiyasi onalik psixologiyasiga nisbatan kam o'rganilgan soha sanaladi. Oilada otalar xulqini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular ham g'amxo'rlik va samimiylik jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo'lsa, ulardan ham mehribon bo'lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo'lgani uchun ular o'rtasidagi farqni kichik yoshdagi bola deyarli his etmaydi. Bir yoshga to'lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o'zaro munosabatlar triada shakliga o'tadi. Otasi va onasining o'zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil, distansion munosabatlarning ma'nosini tushuna boradi[4].

Tadqiqotchi Godfruaning olgan natijalariga ko'ra, bir yoshlik bola otasi bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni qadrlaydigan, xohlaydigan bo'lib boradi, unga intiladi. Onaning munosabatlaridan farqli, ota bolasining jinsiga qarab o'ziga xos munosabatni o'rnata oladi; o'g'il bolaga erkaklarcha, qiz bolaga boshqacha samimiyat bilan mehr ko'rsata oladi. Shu tariqa bolaning o'z jinsini anglashi, gender tafovutlar to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Umuman, oilada otaning

bo'lishi bolaning ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi[5]. Buni professor V. Karimova ham o'z kuzatishlariga tayanib tasdiqlagan: "Otaning mehri qiz bola uchun ham shu qadar muhimki, u ota-ona munosabatlarini hayoti mobaynida kuzatib borib, kelajakda o'z turmush o'trog'iga qanday munosabatda bo'lish lozim, degan savolga javob topadi. Ona xulqiga qarab esa turmush o'rtog'i bilan baxtiyor yashash uchun ayol qanday bo'lishi kerak, degan savolning mag'zini chaqadi. Shuning uchun qiz bola uchun ham, o'g'il bola uchun ham oilaning butligi, ota-ona munosabatlarining iliq, samimiy, gumanistik bo'lishi katta hayotiy ahamiyat kasb etadi"[6]. Demak, bolaning o'zini anglashi, qaysi bir jins vakili ekanligini anglashi va hayotiy tasavvurlarining shakllanishida ota-onalik munosabatlarining yaxlit bo'lishi katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Shunday qilib, bola o'zini-o'zi anglashi jarayonining ijtimoiy-psixologik mohiyatini anglashga bag'ishlangan tadqiqotlar va nazariy yondashuvlardan olingan xulosalarga asoslanib, biz quyidagi fikrlarni umumlashtirishga muvaffaq bo'ldik:

- o'zini-o'zi anglashi, o'zini bilib olish jarayoni shaxs ontogenetik taraqqiyoti davri davomida va ayniqsa, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda sezilarli tarzda jadal rivojlanadi;

- o'zini-o'zi anglash "Men" obrazining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning aynan kognitiv elementi

hisoblanadi, lekin uning shakllanishi affektiv va baholash elementlari bilan bir maromda, uyg'un rivojlanadi;

- "Men" konsepsiyasi bolaning o'ziga bo'lgan kognitiv bahosi hamda o'z fazilatlarini to'g'risidagi tasavvurlar asnosida shakllanadi va uning uchta tarkibiy elementlari – kognitiv (o'zi haqidagi bilim), affektiv (o'ziga munosabat) va ulardan kelib chiquvchi xulq-atvor bilan bog'liq psixologik komponentlarni o'z ichiga oluvchi tizimdir;

- maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini-o'zi anglashiga bevosita ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlar sifatida uning ijtimoiy muhitdagi faol munosabatlar tizimidagi o'rni va bevosita uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi munosabatlar xarakteridan tashqari, uning yoshi va jins xususiyatlari muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim;

- maktabgacha yoshdagi bola "Men" obrazining shakllanishida muhim rol o'ynovchi ijtimoiy omil oila bo'lib, u muhim referent guruh sirasiga kiradi, chunki aynan ota va ona bola taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida eng ahamiyatli, taqlidga molik, o'rnak ko'rsatuvchi shaxslar sifatida bola dunyoqarashi va "Men" obrazi shakllanishining muhim manbai rolini o'ynaydi;

- bola shaxsining shakllanishi va undagi o'z "Men"i to'g'risidagi tasavvurlarning paydo bo'lishida oila a'zolari orasida onaning alohida muhim roli bor. Chunki ona bolaga hissan va emotsional yaqin bo'lib, uning ona

sifatida hamda rafiqa sifatida oilaviy roli
bolaning ijtimoiy rollarni o'zlashtirishida

alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
2. Shamsiev O'.B. Oilaviy xolding-bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi
3. Nazarov, R.N. (2024). The importance of physical education and sports in the education of young athletes. *american journal of social science*, 2(4), 113-118.
4. Mavlonov, D. "Suzish sporti bilan shug'ullanuvchi yosh sportchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik tahlili." *Uzbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyotuyzunligi* (2021): 398-401.
5. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.
6. Shamsiev O'.B. Oilaviy xolding-bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi